

MAKTAB O‘QUVCHILARI ORASIDA XULQ-ATVOR OG‘ISHLARI VA ULARNI BARTARAF ETISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK YO‘LLARI**Razakova Guzal Xasanovna**

Toshkent shahar Chilonzor tuman

162-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktab o‘quvchilari orasida uchraydigan xulq-atvor og‘ishlarining asosiy ko‘rinishlari, ularning kelib chiqish sabablari hamda ushbu muammolarni bartaraf etishda psixologik va pedagogik yondashuvlarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, maktab psixologi, sinf rahbari va ota-onalar hamkorligining samarali usullari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: xulq-atvor og‘ishlari, deviant xulq, maktab psixologi, profilaktika, tarbiya, o‘quvchi shaxsi, ijtimoiy moslashuv.

KIRISH

Bugungi kunda maktab o‘quvchilari orasida xulq-atvor bilan bog‘liq muammolar tobora ko‘payib bormoqda. Tajovuzkorlik, dars qoldirish, yolg‘on gapirish, intizomsizlik, tengdoshlar bilan nizolar va qoidabuzarliklar kabi holatlar o‘quvchining shaxs sifatida rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bois, xulq og‘ishlarini erta aniqlash va ularni bartaraf etish masalasi ta‘lim muassasalari oldidagi muhim vazifalardan biridir.

Xulq-atvor og‘ishlarining asosiy sabablari:

O‘quvchilarda xulq og‘ishlarining kelib chiqishiga bir qator omillar sabab bo‘ladi. Jumladan, oiladagi nosog‘lom psixologik muhit, ota-onalar e‘tiborining yetishmasligi, noto‘g‘ri tarbiya usullari, tengdoshlar ta‘siri, shuningdek, maktab muhitidagi muammolar xulq buzilishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, yoshga xos psixologik inqiroz davrlari, emotsional beqarorlik va o‘zini namoyon qilish istagi ham og‘ishlarga sabab bo‘ladi.

Xulq-atvor og‘ishlarining asosiy ko‘rinishlari:

Maktab o‘quvchilari orasida eng ko‘p uchraydigan xulq og‘ishlariga tajovuzkorlik, qo‘pollik, darslarga qiziqmaslik, intizomni buzish, yolg‘on gapirish, mas‘uliyatsizlik, ijtimoiy qoidalarga bo‘ysunmaslik holatlari kiradi. Ayrim hollarda esa zararli odatlarga moyillik va salbiy guruhlariga qo‘shilish kuzatiladi.

Xulq og‘ishlarini bartaraf etish yo‘llari:

Xulq-atvor og‘ishlarini bartaraf etishda kompleks yondashuv muhim ahamiyatga ega. Avvalo, maktab psixologi tomonidan o‘quvchining psixologik holati o‘rganilib, individual yondashuv belgilanadi. Profilaktik suhbatlar, psixologik treninglar, ijtimoiy moslashuv mashg‘ulotlari o‘tkazilishi samarali hisoblanadi.

Shuningdek, sinf rahbarining tarbiyaviy ishlari, ijobiy rag'batlantirish usullaridan foydalanish, o'quvchining iqtidor va qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash muhimdir. Ota-onalar bilan hamkorlikda olib borilgan ishlar xulq muammolarini bartaraf etishda ijobiy natija beradi.

Xulq-atvor og'ishlari maktab o'quvchisining shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu muammolarni o'z vaqtida aniqlash va to'g'ri yondashuv asosida bartaraf etish orqali sog'lom psixologik muhitni shakllantirish mumkin. Maktab, oila va jamiyatning uzviy hamkorligi o'quvchilar xulqini ijobiy tomonga yo'naltirishda muhim omil hisoblanadi.

Barkamol inson tarbiyasi, bola tarbiyasida ota-ona mas'uliyatini oshirish, ularni psixologik bilimlar bilan qurollantirish bugunning eng dolzarb masalasidir. O'zbek milliy qadriyatlari, milliy madaniyati, bola tarbiyasi va rivojlanishi haqidagi pedagogik bilimlarni takomillashtirish bo'yicha yaxlit tarbiya tizimi ham oila, ham maktabgacha ta'lim muassasalari tomonidan amalga oshiriladi. Bola tarbiyasida bu ikki yo'nalish biri ikkinchisining o'rnini bosa olmaydi, balki biri ikkinchisini to'ldiradi. Sog'lom muhitda sog'lom bola o'sib ulg'aydi. Sog'lom muhitni yaratish oilada oila a'zolarining maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik xodimlarning nechog'lik bilimdonligiga, zukkoligiga bog'liqdir. Ko'p xollarda bir xil yoshdagi bolalarning taraqqiyotida notekislikni ko'rish mumkin. Masalan: bir yoshli bolalarning ba'zilar 10 taga yaqin so'zni ayta oladi. Mustaqil yura oladi. Ayni shu yoshdagi ayrim bolalarning esa mustaqil yura olmasligining, zo'rg'a 1-2 ta so'zni ayta olishining guvohi bo'lamiz. Shuningdek, maktabga boruvchi bolalar jismonan baquvvat, sog'lom, fikri teran, tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar to'g'risida oddiy mushohada qiladigan. "Yaxshi" bilan "Yomon"ni, "Gunoh" bilan "Savob"ni ajrata oladigan bo'ladi. Aynan shu yoshdagi ba'zi bolalarda esa bunga teskari bo'lgan xususiyatlarni uchratish mumkin. Bunday notekislikka asosiy sabab kattalarning e'tiborsizligi yoki bola tarbiyasi bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lmasligidir.

Bolani jismonan, ma'nan, ruhan yetuk inson qilib tarbiyalashda oila va maktabning hamkorligi muhim ahamiyati kasb etadi. Shuning uchun har bir oiladagi pedagogik madaniyatni takomillashtirish zarur. O'qituvchilar tarbiya borasida ota-onalarga ham ta'sir o'tkaza olishlari, oila pedagogikasining nozik jihatlarini chuqur bilishlari kerak. Har bir guruh xonalarida ota-onalar sizlar uchun burchak tashkil qilinib, doimiy ravishda har bir oyda guruh bolalari taraqqiyotidagi o'zgarishlar aniq tahlil qilib ko'rsatilishi va shu asosda ota-onalar uchun tegishli maslahatlar, tavsiyalar berish maqsadga muvofiqdir. Ayrim bolalarning ota-onalari bilan alohida suhbatlar o'tkazib, tegishli yo'l-yo'riqlar beriladi. Masalan: nutqida, jismoniy o'sishida, xulqida kamchiligi bo'lgan bolalarni faqat o'qituvchining harakati bilan bartaraf qilish qiyin. Bolaning oiladagi faoliyati ham, maktabdagi faoliyati ham yagona maqsadga bo'ysundirilgan bo'lishi kerak. Nazariy jihatdan psixokorreksiya maktabgacha ta'lim

muassasalari va maktab tizimida bolani ob'ektiv reallikni idrok etishida tengqurlariga nisbatan o'yin, turli mashqlarni bajarishida orqaga qolish holatlari kuzatilganda, aniqlangan nuqsonlarni tuzatishda qo'llanilishi tavsiya etiladi. Psixokorreksiyaning maqsadini inobatga olib, uni uch guruhga ajratish mumkin. Bular o'z navbatida maktab sharoitida amaliy psixologik yordam ko'rsatish turini belgilash jarayoni samaradorligini ta'minlash uchun xizmat qiladi:

- maktab o'quvchisini psixik rivojlanishini ta'minlovchi psixokorreksiya;
- maktab o'quvchisining o'yin, o'quv va mehnat faoliyatida kuzatiladigan nuqsonlarini tuzatishga qaratilgan psixokorreksiya;
- oilaviy munosabatlarda kuzatilgan muammolarni tuzatishga (muloqot formasi, o'zaro munosabatlar xarakteri va shunga o'xshash) qaratilgan psixokorreksiya.

Maktab sharoitida psixologik yordam ko'rsatish amaliyoti shuni ko'rsatadiki, har bir mutaxassis psixokorreksiya o'tkazishda sub'ektda kuzatilgan nuqsonlarni inobatga olgan, turli psixologik konsepsiyalarga tayangan holda psixokorreksiya o'tkazishi lozim. Psixokorreksiyaning amalga oshirishida psixodinamik, strukturali, regulyativ, sub'ektiv faoliyatli ilmiy ta'limotlar asosida tadbirlarni tashkil etishi lozim. Psixokorreksiya psixologik nuqsonning xarakteridan kelib chiqqan holda hamda nuqsonning ifodalanish dinamikasini inobatga olgan holda individual va guruhviy tarzda o'tkazilishi ma'qul. Lekin bu jarayonda psixologik yordam oluvchilarning funksional holati bir xil darajada bo'lishi shart. Bugungi kunda psixologlar oldida turgan muammolardan biri – bu yoshlarga Internetning salbiy ta'siridir. Albatta bugungi axborot asrida yashayotgan bolalar hamma narsaga qiziqish bilan qaraydilar, hamma yangi narsani qilib ko'rishga harakat qiladilar. Bolalarda taqlid qilish ishtiyoqi kuchli bo'lgani uchun ular Internetda o'tirib, kompyuterda jangari va qo'rqinchi kinofilmlar ko'rishga qiziqadilar. Internetning yoshlar dunyoqarashiga va ruhiyotiga ta'siri juda katta. Internet vaqtni tejaydi, ya'ni yoshlar adabiyot qidirib sarson bo'lmaydilar, Internet dunyoqarashni kengaytirishi mumkin. Ammo Internetning salbiy ta'siri ko'proq. Masalan, Internetdan ayrim yoshlar faqat bo'sh vaqtlarini o'tkazish uchunгина foydalanadilar. Masalan, voyaga yetmagan o'smirlar Internet orqali yoshiga mos kelmaydigan qo'rqinchli kinolarni ko'rishlari orqali ularda salbiy xarakter xislatlari shakllanadi, jumladan, bemehrlik, shafqatsizlik, o'ch olish, keskirlik, uyatsizlik, betgachoparlik kabilar.

Bolalarning Internetda ko'p o'tirishlari ular diqqatining parishonligi, nutqining buzilishi, ya'ni turli xil bema'ni so'zlarni ishlatishlari, fantaziyalarining buzilishi, irodasining kuchsiz bo'lib shakllanishiga olib keladi. Bugungi kunda o'quvchilarning dars mashg'ulotlariga qiziqishlarining pasayib ketishiga, maktabga bormasdan vaqtlarini Internet oldida o'tkazishlari sabab bo'lmoqda. Kattalar Internetdan to'g'ri foydalanishni farzandlariga o'rgatishlari kerak. Ayrim o'quvchilarda o'z joniga qasd

qilish, ya'ni suitsidal hatti-harakatlar ham kuzatiladi. Buning oldini olish ham oldimizda turgan muammolardan biridir. Suitsid - suiqasd degan ma'noni bildiradi. 67 % 25 yoshgacha bo'lgan kishilarda uchraydi. Suitsidda yigitlar o'limni tanlasa, qizlar taqlidiy, joniga qasd qilishga harakat qiladi. Biz psixologlarga suitsidning oldini olishga qaratilgan quyidagi tavsiyalarni beramiz. Har bir ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan psixolog o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini yaxshi bilishi, jamoadagi ruhiy-ma'naviy muhitdan boxabar bo'lishi va uni yaxshilashi zarur. Psixolog tarbiyasi og'ir va turli voqealar sabab tushkunlik holatiga tushib qolgan o'quvchilarni aniqlashi, ularning oilasini to'liq yoki noto'liq turga mansubligini o'rganishi lozim. Ota-onalar va kollej yoki maktab o'rtasida hamkorlikni takomillashtirish, pedagoglarda ota-onalar bilan ishlash rejasini o'quvchi psixologiyasiga, uning o'tish davridagi ruhiy holatiga qaratishi. Oilada otaonalarining farzandlarining barchasiga bir xil munosabatni shakllantirish, bolani kamsitmaslik yoki uni haddan ziyod erkalamaslik, oilada kun tartibini to'g'ri yo'lga qo'yishni ota-onalarga tushuntirish. O'quvchini yolg'izlatib qo'ymaslik, o'quvchidagi har bir o'zgarishni kattalar ilg'ashi va oldini olish chorasini topish, bolani do'st tanlashiga ko'maklashishni pedagoglar va ota-onalarga tushuntirish. Suitsid sodir etgan o'smir bilan suhbatni u xohlagan paytda olib borish, boshqalardan olgan ma'lumotni unga bildirmaslik. O'quvchilar bilan dildan suhbatlashish, uning muammolarini qanday hal etish yo'llarini topish.

XULOSA: Emotsional zo'riqishga uchragan shaxs millati, yoshi, jinsi, individual-tipologik xususiyati, ta'sirlanish darajasi hisobga olinishi kerak. Tuzatish ishlari mashg'ulot, faoliyat, kasb xususiyatiga mos, mutanosib bulishi ta'sir o'tkazish samaradorligini oshiradi. unda yapon uslublarini qo'llash ham zarur ma'lumotlar to'plash va tanglikni yo'qotish imkonini yaratadi. Hal qilishning psixologik shartlari, ta'lim-tarbiyadagi nuqsonlarning oldini olish omillari, yo'llari yuzasidan yordam ko'rsatish zarur. Bolalar, o'quvchilar, talabalarning shaxsiy muammolarini hal qilishda baxoli qudrat ko'mak berishi darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. E. G'oziyev. Ontogenez psixologiyasi. Nazariy - eksperimental tahlil " NOSHIR" Toshkent 2010.
2. E. G'oziyev. Umumiy psixologiya. O'zbekiston Faylasuflar Milliy Jamiyati Nashriyoti. Toshkent 2010.
3. H. Uzoqov., E. G'oziyev., A. Tojiyev. Oila etikasi va psixologiyasi. Toshkent. "O'qituvchi" 1992.
4. Z.T.Nishonova, SH.T.Alimbayeva, M.V.Sulaymonov. Psixologik xizmat. Toshkent. "O'qituvchi" 2013.
5. Ziyo.net